



ALISHER NAVOI'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE TURKISH LANGUAGE

Umirova Dilshoda Husniddin qizi

2nd year student of the Uzbek State University of World Languages
Email: hightimeuz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5516534>

ARTICLE INFO

Received: 05th September 2021
Accepted: 10th September 2021
Online: 15th September 2021

KEY WORDS

"Khamsa", tazad, takrir,
"Foniy", correctness,
curvature, proverb,
musammat, musaddas

ABSTRACT

It is true that the person who strengthened the position of the Turkish language in the world community and raised the aspects of it that no one has yet noticed to the level of art, was a ghazal writer, statesman, loyal friend, public educator, revived the Turkish language. , the person who gave him life is Mir Alisher Navoi. With his greatest and most famous work "Khamsa", Navoi proved that the Turkish language is not inferior to any other language, and with his creative skills has increased the interest and love of many peoples for this language.

ALISHER NAVOIYNING TURKIY TIL RIVOJIDAGI HISSASI

Umirova Dilshoda Husniddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2-kurs talabasi
E-mail: hightimeuz@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-sentabr 2021
Ma'qullandi: 10-sentabr 2021
Chop etildi: 15- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

"Xamsa" , tazod, takrir, "
Foniy", to'g'rilik, egrilik,
maqolat, musammat,
musaddas

ANNOTATSIYA

Shunisi haqiqatki, turkiy tilni jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlab, undagi hali hech kimning ko'zi ilg'amagan jihatlarni san'at darajasiga ko'targan shaxs g'azalnavis, davlat arbobi, sadoqatli do'st xalq ma'rifatparvari, turkiy tilni tiriltirgan, unga jon ato etgan shaxs Mir Alisher Navoiy. Navoiy o'zining eng buyuk ,eng mashhur asari "Xamsa" bilan turkiy tilni hech qaysi tildan kam emasligini isbotladi, o'zining ijodiy mahorati bilan ko'p xalqlarni bu tilga qiziqishini, muhabbatini oshirdi.

Tarixiy haqiqatki, o'zbek tili turli xil bosqichlarni o'z ichiga oladi, bu bosqichlar davrlarga qarab belgilanadi. Alisher Navoiy,

Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog'iy ,Boborahim Mashrab, Zokirjon Xomhammat o'g'li Furqat, Muhammad



Aminxo'ja Muqimiylar eski o'zbek tili rivojiga o'zlarining durdona asarlari bilan hissalarini qo'shdilar, ayniqsa Alisher Navoiy o'zbek tilining xazinasini ocha bildi. Bir manbada aytilishicha aynan Alisher Navoiy o'zbek tilini "ilonlardan", "tikonlardan" tozaladi, hozirgi adabiy til ham eski o'zbek adabiy tili natijasida vujudga kelgan. Alisher Navoiyning quyidagi misralari eski o'zbek adabiy tilining yorqin namunasi:

Shoh-u jahon toj-u xil'atkim, men tomosho qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, eginida shirdog'i bas.

Bu misralardagi "o'zbekim" so'zi orqali uni aynan shu davrlarga taalluqli ekanini bilish mumkin. Shu o'rinda shuni aytish kerakki, hozirgi o'zbek adabiy tilida bu jumlaning shoir Erkin Vohidov "O'zbekim" she'rida "Qayga bormay boshda do'ppim" misralari orqali ifodalaydi.

Alisher Navoiy turli xil jabhalarda ijod qildi, asarlari o'tmish va hozirgi kundagi barcha muammo-yu mavzularga bag'ishlangan, uning o'tmish mavzusidagi "Tarixi muluku ajam" (Ajam, ya'ni arab bo'lmagan mamlakatlar podsholari tarixi), "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi") va turkiy adabiyotshunoslikka doir asarlari ham bor, ular ichida aruzga doiri "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi"), tazkirachilikka (tazkirachilikda ijodkorlar haqida qisqacha ma'lumot va ularning asarlaridan namuna bo'ladi) oid asari "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar"), lug'atshunoslikka oid "Sab'at ul-abhur" ("Yetti dengiz") kabi asarlar yaratdi. Alisher Navoiyning qilgan eng unumli ishlaridan biri "Muhokamat ul-

lug'atayn ("Ikki til muhokamasi") asarida turk va sort (fors) tillarini solishtirgani bo'ldi, Alisher Navoiy o'z davrida "shams ul-millat", ya'ni millat quyoshi deb atalgan.

Jahonning ko'zga ko'ringan yozuvchilari tomonidan ishlatilgan so'zlar miqdori solishtirilganda, tilning boyligi undagi so'zlarning barcha sohalarda ishlatilida ekanligi isbotlangan. Tadqiqot natijasi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy	26035
Aleksandr Pushkin	21193
Uilyam Shekspir	20000 dan ortiq
Migel de Servantes	18 000dan ortiq
Abdurahmon Jomiy	17600 ta
Abdulla To'qay	14 000dan ortiq

Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, aruz vaznining muta'qorib bahrida 7 ta mashhur asar bitilgan ular quyidagilardan iborat:

1. Firdavsiy "Shohnoma"
2. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"
3. Ganjaviy "Iskandarnoma"
4. Dehlaviy "Oynayi Iskandariy"
5. Jomiy "Xiadnomayi Iskandariy"
6. Ogahiy "Qasidayi nasihat"
7. Navoiy "Saddi Iskandariy"

E'tiborli jihat shuki, muta'qoribda keyin hech kim ijod qilmadi, ko'pchilik g'azallar ramal va hazaj bahrida bitilgan.

Alisher Navoiy nafaqat so'zlarni qo'llashda, balki she'riy san'atlarni qo'llashda ham mohir bo'lgan, quyida "Ko'rgali husnungni..." g'azali maqtasidagi (izoh: g'azalning oxirgi qatori maqta, boshi esa matla deb yuritiladi) misralar:



G'ussa changidin navoye topmadim
ushshoq aro,

To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

Birgina maqtada uchta she'riy san'at
qo'llangan , -dek qo'shimchasi orqali
tashbih, navoye va Navoiy so'zlari orqali
ishtiqoq, ushshoq, benavo, asir so'zlari
orqali tanosub san'ati vujudga kelgan.

"Qaro ko'zum..." g'azalini matlasi "shoh
matla" deb ataladi , unda quyidagi misralar
aks etadi:

Qaro ko'zum kel-u mardumlug' emdi fan
qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Bu yerda qaro ko'zum va ko'zum qarosida
so'zlari orqali tardu aks san'ati, kibi so'zi
orqali tashbih san'ati, jonlantirish tashxis
san'ati, qaro ko'zum undalmasi orqali nido
she'riy san'ati vujudga kelgan.

Yana bir boshqa mavzuga o'tadigan
bo'lsak, Alisher Navoiy asarlari va xorijiy
davlatlardagi asarlari bilan ayrim
o'xshashliklari bor , misol uchun Arab xalqi
ijodiyotiga mansub " Ming bir kecha" va

"Sab'ayi Sayyor " (bu asarda haftaning har
bir kunida voqealar hikoya tarzida aytib
beriladi)." Ming bir kecha" da
Shahrizodning hikoyalari tinglansa, "Sab'ayi
sayyor" turli iqlimdan kelgan sayyohlar
hikoyasi tinglanadi.

Shu sababdan Navoiyga muhtaram birinchi
Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich
Karimov o'zining "Yuksam ma'naviyat-
yengilmas kuch" asarida shunay ta'rif
beradi:

" Agar bu zotni avliyo desak , avliyolarning
avliyosi, mutafakkir desak,
mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak,
shoirilarning sultonidir".

Alisher Navoiy shaxsiga yuksak
hurmat,e'tibor qaratilgan , shu sababli
Samarqand viloyati Narpay tumanidagi 29-
maktabda o'tkazilgan so'rovnoma natijasi
shuni ko'rsatdiki, Navoiy shaxsini
o'quvchilar 99% bilishadi, uning g'azallarini
80% o'quvchi biladi, ruboiy va hikmatlarini
85% o'quvchi bilishi aniqlandi.Avlodlarimiz
haqiqatdan ham buyuk ajdodlariga mos
ekanligini ushbu so'rovnoma orqali yana bir
bor isbotlandi.

References:

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" D. Nabiyeva Toshkent-2010 "Ilm Ziyo" nashri yoti 13-bet
2. "Adabiyot" Boqijon To'xliyev -2015 "Bayoz" nashriyoti 6-bet
3. "Adabiyot" Vahob Rahmonov -2017 "Sharq" nashriyoti 167-bet